

**O‘ZBEKISTON XALQ YOZUVCHISI O‘TKIR HOSHIMOV IJODI VA
UNING ASARLARIDA INSON QALBINING BADIY TAHLILI**

Meliyeva Parvina

Yuridik fakulteti sotsiologiya
yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. ushbu maqolada o‘zbek she‘riyatining oltin qalam sohibi, o‘z roman, qissa, hikoyalarida so‘z san‘atining azaliy bosh muammosi-inson taqdiri va qalbining badiiy tahlilini aks ettirgan shoir O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodini o‘rganamiz. Uning asarlari, avvalo, xalqimizning mehrini, e‘tiborini qozongan, shuningdek boshqa tillarda ham tarjima qilinib, dunyo yuzini ko‘rgan. Undan tashqari, shoirning turli kasblarda ham faoliyat yuritgani, o‘z ijodining mahsuli sifatida O‘zbekiston xalq shoiri unvonini olganini ham bilishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: xalq shoiri, Toshkent haqiqati, gazeta, liro-romantik tarona, publitsist, dramaturg, monolog.

O‘tkir Hoshimov 1941-yilning 5-avgustida Toshkent viloyatining Do‘mbirobod mavzesida tug‘ilgan. Yozuvchining bolaligi urush va urushdan keyingi mashaqqatli davrga to‘g‘ri keladi. “O‘sha davrda non tanqis bo‘lgani bilan kutubxonalarda kitob ko‘p”, deya eslagan edi shoir o‘z xotiralarida.

O‘. Hoshimov 1958-yilda o‘rta maktabni bitirib, Toshkent Davlat universiteti jurnalistika bo‘limida o‘qib, uni 1964-yil tugatdi. 1959-1960-yillarda “Temir yo‘lchi”, 1960-yilda “O‘zbekiston ovozi”, 1960-1982-yillarda “Toshkent haqiqati”, “Toshkent oqshomi” gazeta va jurnal nashriyotida ishlagan.

Noyob iste’dod egasi O‘tkir Hoshimov adabiyotga Abdulla Oripov, Omon Matjon, Shukur Holmirzayev singari bir qator tengdoshlari bilan birga kirib keldi. O‘sha paytda adabiyotimizning Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor,

Maqsud Shayxzoda singari ulkan yozuvchilari hayot bo‘lib, ularning nazariga tushish hammaga ham nasib qilavermagan. O‘tkir Hoshimov esa Abdulla Qahhordek mashhur shoir e’tiborini tortgan edi.

O‘tkir Hoshimov o‘z ijodini she’r va ocherklar yozishdan boshladi. Roman, qissa, hikoyalarida so‘z san’atining azaliy bosh muammosi-inson taqdiri va qalbining badiiy tahlili ham mavjud edi. Muallif dolzarb ijtimoiy muammolar talqini bilan yondosh holda ko‘p o‘rinlarda personajlar ruhiyatidagi g‘oyat nafis jarayonlarni san’atkorona ifoda etardi.

O‘tkir Hoshimov ijodi publitsistikadan boshlanib, shu yo‘nalishdagi “Po‘lat chavandoz” nomli birinchi kitobi 1962-yilda bosilib chiqdi. Ilk hikoyasi esa 1963-yili “To‘rt maktub” nomi bilan e’lon qilindi.

Shoirning yozgan ilk qissasi “Cho‘l havosi” deb nomlanib, adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Uning bu qissaga yozgan oq yo‘lida u “Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo‘ladi”, - deb bashorat qilgan edi.

Keyinroq u dolzarb, ijtimoiy muammolar talqiniga ko‘proq moyillik bildirib, ayni zamonda bevosita ma’naviyat, ruhiyat tahliliga bag‘ishlangan asarlar ustida ish olib bordi. Yozuvchining shu yo‘nalishdagi “Qalbingga quloq sol” (1973), “Bahor qaytmaydi” (1970), “Dunyoning ishlari” (1982) qissalari unga katta shuhrat keltirdi.

Yozuvchi ijodiga xos liro-romantik tarona uning “Dunyoning ishlari” asari xalqimiz tomonidan iliq kutib olindi. Bu asar ona haqidagi, ona qalbining cheksiz sahovati to‘g‘risidagi o‘ziga xos qasida. Asardagi ona-farzandi, uning oromi, baxti

uchun jonini,jahonini berishga tayyor. U ming-minglab o‘zbek onalarining timsoliga aylandi.

Qissadagi “Alla”,“Oq marmar” kabi novellalarida onaning farzand qalbida qoldirgan armonlari haqida o‘tkir yozilgan. Inson bularni o‘qir ekan, allanechuk bo‘lib ketadi.

O‘. Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asari adib ijodida alohida ahamiyatga ega. Unda qariyb qirq yillik davr qamrab olinib, bir qator chigal, murakkab taqdirlar misolida o‘zbek xalqining tarixiy qismati mahorat bilan qamrab olinadi. Romanning asosiy qahramonlari ikkinchi jahon urushi og‘irliklarini yelkasida ko‘targan, undan mardona g‘olib chiqqan kishilardir. Umuman olganda, romanda butun jamiyat kishilarining urush davridagi fidokorligi o‘zining badiiy ifodasini topgan. Roman qahramonlaridan biri Muzaffar - urush davrida muayyan qiyinchiliklarni boshidan kechirgan. 70-yillarga kelib farovon turmushga erishgan yoshlarning timsoli tarzida beriladi. Romanning sarlavhasidan tortib,deyarli butun mazmunigacha yozuvchi jiddiy falsafiy ma’no yuklashga intilgan. Roman 1986-yil Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Shoirning 1976-yil yozilgan “Nur borki,soya bor” romanida jamiyat ijtimoiy hayotidagi illatlarni, turg‘unlikning mohiyatini ochish asnosida davrning muhim ma’naviy-axloqiy masalalarini ko‘tarib chiqqan.Shoir bu kabi turg‘unlik davri illatlarini Sayfi Soqiyevich, Sirojiddin singari obrazlar orali fosh etdi. Muallif asarda jamiyatning muvozanati buzulganligini aks ettiradi va Sherzod obrazi orqali shu muvozanatni joyiga keltirishda harakat qiladi.

Shoirning “Tushda kechgan umrlar” romanida voqealar qamrovi juda keng: 30-yillarning mash’um “qatag‘on” qilish manzaralari, 80-yillarning Afg‘oniston

urushi lavhalari,shu yillarda sodir bo‘lgan “o‘zbek ishi” mojarolari. Bu uchta yirik,juda katta hajmli voqealarni bir - biri bilan bog‘lashda,ular orasiga “biriktirish nuqtasini” topishda muallif ichki monologdan unumli foydalanadi.

“Bahor qaytmaydi” (1970) qissasida yozuvchi iste’dodli, biroq uning qadriga yetmagan,ulug‘ maqsadlardan mahrum xudbin yigitning tanazzul tarixini,ruhiy-ma’naviy inqirozini san’atkorona tahlil etib berdi. Bundan adibning haqiqiy ijod yo‘liga kirganligini ko‘ramiz.

O‘tkir Hoshimov asrdan-asrga o‘sib bordi. Unda nafosat tuyg‘usi behad kuchli. Hatto u aldangan odamning ma’naviy inqirozi, fojeasi, halokati tasvirida ham shu tuyg‘usini saqlab qoladi. Ayniqsa, u yaxshi, oliyjanob, ma’naviy barkamol odamlar qalbi tahlilida o‘zini nihoyatda erkin his etadi. Uning ijobiy qahramonlari aksari go‘dakday beg‘ubor, nafosat tuyg‘usiga boy, hissiyotli, o‘ta ta’sirchan odamlardir

Adib hikoya janrida ham unumli, samarali ijod qilgan.“Muhabbat”, “Dehqonning bir kuni”, “Urushning so‘nggi qurboni”, “O‘zbek ishi” kabi asarlari o‘zbek hikoyachiligi rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi.

Yozuvchi mohir hikoyanavis, qissanavis, romannavis va publitsisgina emas, dramaturg sifatida ham zamonaviy adabiyot rivojiga ta’sir ko‘rsatdi. Uning “Hazon bo‘lgan bahor”,“To‘ylar muborak”,“Vijdon dorisi”,“Inson sadoqati”, “Qatag‘on” drama va komediyalari Respublika teatrlari sahnalaridan munosib o‘rin egallagan. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobi ijtimoiy-ma’naviy hayotda muayyan iz qoldirgan.

O‘tkir Hoshimov tarjimon sifatida O. Berggolts, S. Sveyg, Mustay Karim asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Uning eng yaxshi va sara asarlari rus va

boshqa tillarga tarrjima qilingan. Adibning jami nashr etilgan asarlari ellikdan ortiq bo‘lib, ularning umumiy tiraji qariyb ikki milliondan oshadi.

1995-2004-yillari 1 va 2 chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis deputati, Oliy Majlis Matbuot va axborot qo‘mitasi raisi bo‘lgan. O‘. Hoshimovga samarali ijod qilganligi uchun 1991-yili “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” faxriy unvoni berilgan. 1986-yilda hamza nomidagi davlat mukofotiga loyiq topilib, “Mehnat shuhrati” (1996), “Buyuk xizmatlari uchun” (2001) ordenlari bilan mukofotlangan.

Adibning “Oila bitta, Vatan yagona”, “Biz hech kimdan kam emasmiz”, “Badbaxt dala tutquni”, “Istiqlolni asraylik”, “Kechani unutmagan-bugunni qadrlaydi” singari asarlarida mustaqillikni qadrlashga da’vat etadi. Bugungi kunda o‘tkir hoshimov asarlari eng o‘qishli, eng ommabop kitoblari sifatida xalq orasida qo‘lma-qo‘l o‘qilayapti.

O‘tkir Hoshimovning asarlari o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadi. U ko‘plab hikoya, qissa va romanlar yozgan, shuningdek, mashhur xorijiy adiblarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Uning “Bahor qaytmaydi” qissasi asosida 1972-yilda film suratga olingan. O‘tkir Hoshimov o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan va o‘z zamonasining muhim adiblaridan biri sifatida tanilgan.

Shoir 2013-yil 24-mayda Toshkent shahrida vafot etgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek adabiyotida oltin qalam sohiblari, yozgan roman, qissa, hikoya, asarlarida avvalo xalqning hayoti, davrdagi muhitni yoritgan shoir va shoirlari juda ko‘p va ularning har biri va ijodlari xalqimiz mehrini qozongan. Bulardan O‘tkir Hoshimovning ijodi o‘ziga xos.
SJIF:5.219

Uning asarlarida inson qalbining badiiy tahlili, kechinmalari aks etib, onalarni asrash, mustaqillikni qadrlashga da'vat etilgandir. Shoirning qoldirgan barcha kitoblari xalqimizning sevib o'qiydigan asarlaridir. Boisi tilning xalqonaligi, qahramonlari va xarakterlarning milliyliigi, voqealarning hayotiyliigi o'quvchilar mehrini qozongan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://akademiklar.uz/hoshimov-otkir>.
2. https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/hoshimov_utkir.
3. B.Roziq. O'tkir Hoshimov haqida ma'lumot.
4. <https://bilimlar.uz/o'tkir-hoshimov-1941-2013/>.
5. <https://asarlar.uz/kitob/nur-borki-soya-bor>.